Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektorini buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umumdaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinovna</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirqul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process.....	1014
	Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
	The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English.....	1019
	Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi	
	Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati.....	1025
	G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omaxon Rahmonberdi qizi	
	Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari.....	1028
	Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1031
	Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.....	1034
	Iminova Z. B.	
	Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati.....	1038
	Inayatova Nargisa Nishonboyevna	
	O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1044
	Kalmuratovna Venera Sultanova	
	Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari.....	1049
	Kamola Abdullayeva	
	O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari.....	1052
	Karimov Orif Obloqul o'g'li	
	Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati.....	1055
	Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna	
	Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers.....	1060
	Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li	
	Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri.....	1063
	Makulov Shuxratjon Zokirovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar.....	1067
	Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish.....	1072
	Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi.....	1075
	Mansurova Umida Mansur qizi	
	Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari.....	1081
	Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi	
	Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati.....	1084
	Murodov Nozimjon Olimjonovich	
	Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari.....	1088
	Nafasova Jamila Turg'un qizi	
	Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish.....	1093
	Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi.....	1097
	Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi	
	Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli.....	1101
	O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li	
	Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari.....	1104
	Orifjonova Nazokat Maribjon qizi	
	Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari.....	1108
	Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi	
	Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.....	1112
	Ostanov Askarjon Nuriddinovich	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
<i>Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna</i>	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
<i>O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova</i>	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
<i>Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
<i>Rahmatova Barnogul Karimjonovna</i>	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
<i>Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
<i>Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi</i>	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
<i>Roziqova Malika Olimovna</i>	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
<i>Sattorov Boburbek Zokirovich</i>	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
<i>Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova</i>	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
<i>T. Seydemetov</i>	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching.....	1161
<i>Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna</i>	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li</i>	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
<i>Utambetova Arzayim</i>	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
<i>Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li</i>	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
<i>Xuramova Farangiz Uchqun qizi</i>	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
<i>Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna</i>	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
<i>Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova</i>	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
<i>Zikriyayev Faxriddin Ma‘mur o‘g‘li</i>	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
<i>Пак Светлана Викторовна</i>	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
<i>Сагиндиқов Алишер Алеуатдинович</i>	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
<i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна</i>	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
<i>Яхшиева Мехринигор Шавкатовна</i>	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
<i>Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich</i>	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
<i>Bannayev Qosimjon Qodirjonovich</i>	



TA'LIM SOHASIDA MOTIVATSIYANI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI

O. I. Pirmatov

Xorazm viloyati, Shovot tumani,
8-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali
jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

I. S. Sobirova

19-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-toifali
matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi asosiy muammolardan biri – o'quvchilarning o'qishga nisbatan qiziqishining pasayishi va ichki rag'batning sustlashib borayotganidir. Shuning uchun zamonaviy pedagogika o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan motivatsion omillarni aniqlash hamda ularni ta'lim jarayoniga joriy etish yo'llarini o'rganishni talab etadi. Maqolada motivatsiyaning ichki va tashqi turlari, ularning ta'lim sifati va o'quvchi faolligiga ta'siri hamda o'qituvchining mazkur jarayondagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va rag'batlantiruvchi baholash vositalari orqali o'quvchilarda o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari innovatsion metodlar va motivatsion yondashuvlardan muntazam foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, dars jarayonida faol ishtirok etish hamda bilim olishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishini ko'rsatadi. Mazkur xulosalar pedagoglar uchun o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish va ta'lim samaradorligini yuksaltirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, ta'lim, pedagogika, o'quvchi faolligi, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, tadqiqot.

Abstract: This article analyzes effective methods for enhancing students' motivation toward learning. One of the major challenges in today's educational system is the decline in learners' interest in studying and the weakening of their intrinsic motivation. Therefore, modern pedagogy requires identifying motivational factors that positively influence the learning process and exploring practical ways to integrate them into teaching. The article provides a detailed explanation of the differences between intrinsic and extrinsic motivation, their impact on educational quality and student engagement, as well as the teacher's role in this process. Additionally, it examines the potential of interactive methods, digital technologies, learner-centered approaches and encouraging assessment systems in fostering a positive attitude toward learning. The research results demonstrate that the regular use of innovative methods and motivational strategies strengthens students' independent thinking, active participation and desire for knowledge acquisition. Thus, the findings of the study have practical significance for educators seeking to improve students' learning motivation and enhance educational effectiveness.

Key words: motivation, education, pedagogy, student engagement, interactive methods, digital technologies, research.

Аннотация: В данной статье анализируются эффективные методы повышения учебной мотивации учащихся. Одной из ключевых проблем современной системы образования является снижение интереса школьников к учёбе и ослабление их внутренней мотивации. В связи с этим современная педагогика требует изучения факторов мотивации, оказывающих положительное влияние на процесс усвоения знаний, а также определения путей их внедрения в образовательную практику. В статье подробно раскрываются различия между внутренней и внешней мотивацией, их влияние на качество образования и активность учащихся, а также роль учителя в данном процессе. Кроме того, рассматриваются возможности формирования положительного отношения к обучению посредством интерактивных методов, цифровых технологий, личностно-ориентированного подхода и поощряющей системы оценивания. Результаты исследования показывают, что регулярное применение инновационных методов и мотивационных подходов способствует развитию самостоятельного мышления, активного участия и стремления учащихся к освоению знаний. Следовательно, выводы статьи имеют практическую значимость для педагогов, заинтересованных в повышении учебной мотивации и эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: мотивация, образование, педагогика, активность учащихся, интерактивные методы, цифровые технологии, исследование.

KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirish va ularning faol ishtirokini ta'minlash masalalari pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati esa, avvalo, o'quvchining motivatsiya darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Motivatsiya o'quvchilarning ta'lim faoliyatiga nisbatan munosabatini, bilim olishga bo'lgan ishtiyogini, maqsad sari intilish darajasini va natijada o'qish samaradorligini belgilovchi asosiy psixologik omil sanaladi. Shu sababli o'qituvchilarning o'z faoliyatida o'quvchilarning ichki va tashqi motivlarini uyg'otish, ularni doimiy rag'batlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Edward Deci va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan "Self-Determination Theory" (o'z-o'zini belgilash nazariyasi)da motivatsiya shaxsning uchta asosiy ehtiyoji – avtonomiya, kompetensiya va ijtimoiy aloqadorlik qondirilganda shakllanishi ta'kidlanadi¹. Demak, ta'lim jarayonida o'qituvchi ana shu ehtiyojlarni inobatga olib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z imkoniyatlarini anglashga va hamkorlikda o'rganishga yo'naltirishi lozim.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida ham ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish, shuningdek, interfaol metodlar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son² qarorida ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini kuchaytirish va motivatsion yondashuvlarni joriy etish alohida vazifa sifatida belgilangan.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab o'quvchilar o'qishga nisbatan befarq, passiv yoki faqat tashqi rag'bat (baho, mukofot, ota-ona bosimi) ta'sirida harakat qiladi. Bunday sharoitda ichki motivatsiyani shakllantirish – ya'ni o'quvchilarda o'qishdan zavq olish, o'z qobiliyatiga ishonch hosil qilish va mustaqil rivojlanish istagini uyg'otish – zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifasidir.

Shu bois ushbu maqolaning maqsadi – ta'lim jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi samarali usullarni aniqlash, tahlil qilish va ularning amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini yoritishdan iboratdir. Maqolada motivatsiyaning nazariy asoslari, uni shakllantiruvchi omillar, o'qituvchi shaxsining roli hamda interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar asosida motivatsiyani oshirish yo'llari o'rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Motivatsiya ta'lim jarayonining markaziy tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi, faol ishtiroki va o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Edward L. Deci va Richard M. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory)ga ko'ra, insonning o'qishga bo'lgan ichki rag'batini uch asosiy psixologik ehtiyoj – avtonomiya, kompetensiya va aloqa (relatedness) qondirilganda rivojlanadi³. Ularning fikricha, o'qituvchilar o'quvchilarga mustaqil qaror qabul qilish, o'zini namoyon etish va muloqot qilish imkonini bersalar, bu o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Ichki va tashqi motivatsiya tushunchalari o'rtasidagi farq ko'plab tadqiqotlarda keng yoritilgan. Masalan, Lai (2011) o'z tadqiqotida ichki motivatsiya o'quvchining o'zini rivojlantirish istagidan kelib chiqishini, tashqi motivatsiya esa mukofot, baho yoki ijtimoiy bosim kabi tashqi omillar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi⁴. Shu bilan birga, "ortiqcha mukofotlash effekti" (overjustification effect) nazariyasiga ko'ra, o'quvchilar haddan ortiq tashqi rag'bat olsalar, ularning ichki motivatsiyasi pasayishi mumkin.

Ta'lim muhitining ijobiy yoki salbiyligi ham motivatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Reeve (2012) o'z tadqiqotida o'qituvchining muloqot uslubi, qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish qobiliyati va o'quvchilarning hissiy ehtiyojlarini tushunishi motivatsiyaning asosiy determinantlaridan biri ekanini isbotlagan⁵. Boshqa tadqiqotlarda ham o'qituvchining shaxsiyati va pedagogik yondashuvi o'quvchilar motivatsiyasiga bevosita ta'sir etishi ta'kidlangan. Yevropa ta'lim tizimida olib borilgan bir qator tadqiqotlar (masalan, Oxford University Press, 2023) shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar interfaol va shaxsga yo'naltirilgan metodlardan foydalanganda o'quvchilarning

- 1 Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. *American Psychologist*, 55(1), 68–78. <https://psycnet.apa.org/doi/10.1037/0003-066X.55.1.68>
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-5085887>
- 3 <https://psycnet.apa.org/doi/10.1037/0003-066X.55.1.68>
- 4 https://images.pearsonassessments.com/images/tmrs/Motivation_Review_final.pdf
- 5 Verywellmind. (2023). The Overjustification Effect. <https://www.verywellmind.com/what-is-the-overjustification-effect-2795386>



o'qishga bo'lgan ishtiroki va faolligi sezilarli oshadi⁶. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, o'yinlashtirish (gami-fikatsiya), onlayn testlar va vizual platformalar o'quv jarayonini qiziqarli qilish orqali motivatsiyani oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Murodova (2021) tomonidan O'zbekiston ta'lim tizimi misolida olib borilgan tadqiqotda esa, o'quvchilarning motivatsiyasi ko'p hollarda o'qituvchi tomonidan beriladigan ijobiy baholash va rag'batlantiruvchi so'zlarga bog'liqligi aniqlangan⁷. Shuningdek, Umarov (2022) o'z maqolasida interfaol metodlar va baholash tizimining adolatligi o'quvchilarning o'qishga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiruvchi muhim omillar ekanini qayd etadi.

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar ham motivatsiya va o'quv yutuqlari o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligini tasdiqlaydi. Masalan, Mabuan (2023) tomonidan Filippin maktablarida o'tkazilgan tadqiqotda o'quvchilarning motivatsiya darajasi va o'qish natijalari o'rtasida $r=0.78$ darajada kuchli bog'liqlik aniqlangan⁸. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarni ilhomlantirish, rag'batlantirish va ularning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash ta'lim samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, motivatsiyani oshirish bo'yicha tadqiqotlar nazariy jihatdan keng rivojlangan bo'lsa-da, amaliyotda bu yondashuvlarning tatbiqi hali yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu sababli, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida motivatsion strategiyalarni o'qitish va ularni dars jarayoniga joriy etish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ta'lim sohasida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi samarali usullarni aniqlash va ularning amaliy ahamiyatini baholash maqsad qilingan. Tadqiqotning ishonchligini ta'minlash uchun turli manbalar – so'rovnoma, suhbat va kuzatuv natijalari o'zaro taqqoslab tahlil qilindi. Bu yondashuv triangulyatsiya tamoyiliga asoslanib, natijalarning obyektivligini oshirishga xizmat qildi. Biroq tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud bo'lib, ular orasida ishtirokchilar sonining nisbatan kamligi va tadqiqotning faqat Toshkent shahri doirasida o'tkazilgani alohida qayd etiladi. Mazkur metodologik yondashuv orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda o'qituvchi faoliyatining roli, pedagogik muloqot sifati, interfaol metodlardan foydalanish va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish darajasi o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar keyingi bo'limlarda keltiriladigan natijalarni tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar – bu o'qituvchining rag'batlantiruvchi yondashuvi, dars jarayonidagi interfaollik darajasi va o'quv muhitining ijobiyligi hisoblanadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 68 foizi o'qituvchi tomonidan ijobiy baholash va rag'bat so'zlari ularning o'qishga bo'lgan ishtiroqini oshirishini bildirgan. 54 foiz o'quvchi esa interfaol darslarda o'zini erkin his qilishini va mustaqil fikr bildirishga tayyorligini ta'kidlagan. Bu natijalar shuni anglatadiki, dars jarayonida o'qituvchi tomonidan yaratilgan ijobiy psixologik muhit o'quvchilar motivatsiyasining eng muhim manbalaridan biridir.

TAHLIL VA NATIJALAR

“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'ri yo'nalishdagi qadam bo'lib, iqtidorli o'qituvchilarni malaka toifasidan kelib chiqib, ularning ish haqini differensial oshirish, ularning malakasini oshirishni ta'minlash va davlat mablag'lari hisobidan kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish yo'li bilan iqtidorli o'qituvchilarni jalb etish va saqlab qolish zarurligini e'tirof etadi. Ushbu tashabbus 4 ta maqsadga erishishga qaratilgan, bunda:

- 1. Global ta'lim imkoniyatlari.** 1 000 nafar tarbiyachi va o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. Turli xil o'qitish usullari va innovatsion amaliyotlar bilan tanishish ularning tajribasini boyitadi va o'quvchilarga foyda keltiradi.
- 2. Raqobatga asoslangan kompensatsiya.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'rtacha ish haqini 2 barobar oshirish. Ushbu sarmoya ularning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ta'lim sohasidagi eng yaxshi iste'dodlarni jalb qilish va saqlab qolish uchun belgi bo'lib xizmat qiladi.
- 3. Bir umrlik ta'lim madaniyati.** 500 ming nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish. Ko'nikmalarni oshirishga bo'lgan bunday majburiyat o'qituvchilarning rivojlanayotgan pedagogik yondashuvlardan xabardor bo'lishini va o'quvchilarning turli ehtiyojlarini samarali qondirishini ta'minlaydi.

6 Oxford University Press (2023). Teachers' Pedagogical Intentions While Using Motivational Strategies. <https://academic.oup.com/eltj/article/76/4/508/6407675>

7 Murodova, N. (2021). Ta'limda motivatsiyani oshirish omillari. Toshkent: TDPU Ilmiy jurnali.

8 Mabuan, R. A. (2023). Learning Motivation and Student Engagement Among Senior High School Students. Journal of Educational Research and Practice, 12(4), 215–227. <https://journal.matappa.ac.id/index.php/jurkam/article/view/2851>

- 4. Uzoq hududlarni maqsadli qo'llab-quvvatlash.** Ehtiyoj yuqori bo'lgan yo'nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni to'liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish. Ushbu tashabbus chekka hududlardagi intiluvchan o'qituvchilarni samarali sinf rahbari bo'lish uchun zarur ko'nikma va bilimlar bilan ta'minlab beradi, natijada ta'lim tengligi va barcha uchun sifatli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Bu hukumatning malakali o'qituvchilarni jalb qilish va ularni saqlab qolishga jiddiy sarmoya kiritishga, butun O'zbekiston bo'ylab ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan e'tiborini anglatadi.
- 5. Psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhit.** Motivatsiya to'g'ridan-to'g'ri sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitga bog'liq. Inklyuziv sinfdagi o'zaro hurmat, mehr-shafqat va yordam ko'rsatish muhitini shakllantirish o'quvchilarda o'zini qadrlash hissini kuchaytiradi. Sinfdagi kamsitish, zo'ravonlik va diskriminatsiyani bartaraf etish motivatsiya uchun muhim omil hisoblanadi. Motivatsiyani oshirishda ota-onalar bilan doimiy muloqot, maslahat va treninglar tashkil etish muhimdir. Ota-onalar bolaning o'qishidagi muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlasa, uning o'z-o'ziga ishonchi oshadi va darsga bo'lgan qiziqishi kuchayadi.

Rag'batlantirish motivatsiyani oshiruvchi asosiy vositalardan biridir. Bu nafaqat baho, balki o'quvchining harakatini maqtash, qiziqarli topshiriqlar, kichik sovrinlar va e'tirof shaklida bo'lishi mumkin. Bunda baholash jarayonida faqat yakuniy natija emas, balki o'quvchining harakatlari, intilishi va ijobiy o'zgarishlari inobatga olinadi.

Finlyandiya, Yaponiya, Kanada kabi davlatlarda inklyuziv ta'limda motivatsiyani oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Finlyandiya o'qituvchilarning yuqori malakasi, moslashtirilgan dasturlar va yengil baholash tizimi o'quvchilarda ortiqcha stressni kamaytirib, motivatsiyani oshiradi. Yaponiyada esa o'quvchilarda jamoaviylik va intizomiy motivatsiya rivojlantiriladi, har bir bola jamiyatning teng a'zosi sifatida tarbiyalanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu ilg'or tajribalarni milliy mentalitetga moslashtirish orqali motivatsiyani oshirish mumkin. Bunda pedagoglar tayyorgarligi, metodik qo'llanmalar va ota-onalar bilan muloqotning kuchaytirilishi muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishning muhim omillari va ularning samaradorligi haqidagi ilmiy tushunchalarni yanada mustahkamladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ichki motivatsiyasi – ya'ni o'z bilimni chuqurroq o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish istagi – ularning uzoq muddatli muvaffaqiyati va darslarda faol ishtirokini belgilovchi asosiy omildir. Tadqiqot davomida o'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, o'quvchilarning tashqi motivatsiya omillari (baho, mukofot, ota-ona yoki jamoadagi tan olinish) qisqa muddatli faollikni rag'batlantiradi, ammo ularning doimiy va barqaror samaradorligi, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayoniga chuqur jalb qilinishi uchun ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlash bilan uyg'un bo'lishi zarur.

Suhbatlar va kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining dars jarayonidagi pedagogik yondashuvi, muloqot madaniyati va rag'batlantiruvchi strategiyalari o'quvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, interfaol metodlar, jumladan guruh ishlari, muammoli vazifalar, raqamli vositalar va o'yinlashtirish (gamifikatsiya) elementlari qo'llanilganda o'quvchilarning darsdagi faol ishtiroki o'rtacha 30–40 foizga oshadi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar o'quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytirishda va ularning ta'lim jarayonidagi qatnashuvini barqaror ushlab turishda muhim omil hisoblanadi.

Natijalar shuningdek o'qituvchilarning o'z kasbiy motivatsiyasi va shaxsiy qiziqishi ham o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Bu esa pedagogning shaxsiy professional yondashuvi va darsga bo'lgan ichki rag'batini o'quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirishda bevosita rol o'ynashini tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, motivatsion strategiyalarni o'rganishi va darslarni rejalashtirishdagi ijodiy yondashuvi ta'lim sifatini oshirish uchun zarur shartlar hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Birinchi*dan, o'qituvchilar darslarni interfaol shaklda tashkil etishi, o'quvchilarga mustaqil fikr bildirish imkonini yaratishi va har bir o'quvchining individual ehtiyojini hisobga olishi lozim.
- Ikkinchi*dan, raqamli texnologiyalar, vizual vositalar, onlayn testlar va jamoaviy faoliyat elementlarini dars jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish mumkin.
- Uchinchi*dan, o'qituvchilarning pedagogik yondashuvi va kasbiy motivatsiyasi o'quvchilarning ichki rag'batini shakllantirishga bevosita ta'sir qilgani bois, ular muntazam ravishda malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi va motivatsion strategiyalar bo'yicha treninglar o'tishi tavsiya etiladi.



Shuningdek, o'quvchilarning ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlashda dars mazmunini ularning qiziqishlariga moslashtirish, hayotiy misollar bilan boyitish va o'zlashtirish jarayonida erkin tanlov imkoniyatini berish muhimdir. Tashqi rag'bat vositalari (baho, mukofot, e'tirof) esa ichki motivatsiya bilan uyg'unlashtirilganda, o'quvchilarning ta'lim jarayonida barqaror faolligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish nafaqat ularning bilim darajasini, balki shaxsiy rivojlanishini, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagogik amaliyotda motivatsiyaga yo'naltirilgan yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini barqaror ta'minlash uchun asosiy strategik vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Murodova, N. (2021). Ta'limda motivatsiyani oshirish omillari. Toshkent: TDPU ilmiy jurnali.
2. Umarov, S. (2022). Pedagogik jarayonda interfaol metodlar orqali o'quvchilarda motivatsiyani rivojlantirish. O'zbekiston pedagogika jurnali, №3.
3. Lai, E. R. (2011). Motivation: A Literature Review. Pearson Research Report Series. https://images.pearsonassessments.com/images/tmrs/Motivation_Review_final.pdf
4. Verywell Mind. (2023). The Overjustification Effect. <https://www.verywellmind.com/what-is-the-overjustification-effect-2795386>
5. Reeve, J. (2012). A Self-Determination Theory Perspective on Student Engagement. *Educational Psychologist*, 47(3), 181–195.
6. <https://doi.org/10.1080/00461520.2012.667222>
7. Han, J., & Yin, H. (2016). Teacher Motivation: Definition, Research Development, and Implications for Teachers. *Cogent Education*, 3.
8. <https://doi.org/10.1080/2331186X.2016.1217819>
9. Oxford University Press. (2023). Teachers' Pedagogical Intentions While Using Motivational Strategies.
10. <https://academic.oup.com/eltj/article/76/4/508/6407675>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.